

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.M.Qandov</b>	
Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
<b>U.J.Mansurov</b>	
Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
<b>M.M.Alimova</b>	
1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi .....	312
<b>J.Museyibzada</b>	
Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
<b>A.A.Azizov</b>	
Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida) .....	324
<b>A.T.Ahmedov</b>	
Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari .....	328
<b>D.A.Urinbayeva</b>	
Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
<b>T.Ch.Xoliyarov</b>	
Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi .....	340
<b>X.X.Mamajonov</b>	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniyalar imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar .....	347
<b>I.S.Yusupov</b>	
Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi .....	351
<b>F.K.Jumanazarova</b>	
Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
<b>U.X.Gulmatov</b>	
O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni .....	359

---

ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>U.B.Matmurotova</b>	
Badii tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xhatish misolida.....	364
<b>Sh.A.Safarova</b>	
"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish .....	369
<b>D.I.Nazarova</b>	
Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar .....	374

---

TILSHUNOSLIK

<b>A.B.Uralov</b>	
Til sathlarida nomutanosiblik .....	381
<b>A.Sh.Muxamadiyev</b>	
Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
<b>Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova</b>	
Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida .....	393
<b>U.Sh.Turaeva</b>	
Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
<b>Y.T.Rakhmonkulova</b>	
A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages .....	401
<b>O.F.Turdaliyev</b>	
"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli .....	405
<b>M.O.Usarova</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari .....	413
<b>Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова</b>	
Смыковые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер .....	417
<b>B.Q.Nomonov</b>	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



УО'К: 94:345(575.151), 91(571.1) (091)

**MAKEDONIYALIK ALEKSANDR NOMI BILAN BOG'LIQ SHAHARLAR TARIXIY  
GEOGRAFIYASI**

**ИСТОРИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ ГОРОДОВ, СВЯЗАННЫХ С ИМЕНЕМ АЛЕКСАНДРА  
МАКЕДОНСКОГО**

**HISTORICAL GEOGRAPHY OF CITIES ASSOCIATED WITH THE NAME OF  
ALEXANDER THE GREAT**

Xoliyarov To'lqinjon Chorshanbiyevich 

Termiz muhandislik-texnologiya instituti, t.f.b.f.d. (PhD)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada makedoniyalik Aleksandr qurdirgan yoki uning nomi bilan bog'liq shahar va aholi manzillarining soni haqidagi yozma manbalar qiyosiy tahlil qilingan. Shimoli-g'arbiy Baqtriyaning ellenizm davridagi Eski Termiz, Kampirtepa, Suragana kabi shahar va qishloqloqlari tarixiy geografiyasi yoritilgan. Oks bo'yidagi Aleksandriya Kampirtepa emas, Eski Termiz ekanligi asoslangan.

**Аннотация**

В статье проводится сравнительный анализ письменных источников о количестве городов и адресов населения, построенных Александром Македонским или связанных с его именем. Освещена историческая география городов и сел Северо-Западной Бактрии эллинистического периода, таких как Старый Термез, Кампиртепа, Сурагана. Он основан на том, что Александрия на берегу Окса – это не Кампиртепа, а Старый Термез.

**Abstract**

This article provides a comparative analysis of written sources about the number of cities and population addresses built by Alexander the Macedonian or associated with his name. The historical geography of the towns and villages of North-West Bactria during the Hellenistic period such as Old Termiz, Kampirtepa, Suragana is covered. It is based on the fact that Alexandria on the banks of the Oxus is not Campirtepa, but Old Termiz.

**Kalit so'zlar:** polislар, katoiklar, fruriyalar, Shimoli-g'arbiy Baqtriy, Oks bo'yidagi Aleksandriya, Oksdag'i Antioxiya, Darmamitra, Tarmita, Eski Termiz, Kampirtepa, Suragana.

**Ключевые слова:** полис, катоики, фрурионе, Северо-Западная Бактрия, Александрия на Оксе, Антиохия на Оксе, Дхармитра, Тармита, Старый Термез, Кампиртепа, Сурагана.

**Key words:** polis, catoics, frurions, Northwest Bactria, Alexandria on the Oxus, Antioch on the Oxus, Dharmamitra, Tarmita, Old Termiz, Campirtepa, Suragana.

**KIRISH**

Ma'lumki, makedoniyalik Aleksandr bir qancha shaharlar qurdirgan hukmdor sifatida nom qozongan. Aleksandr qurdirgan shahar va qal'alar haqidagi ma'lumotlar ko'p. Yunon tarixchisi Strabon (mil.avv. 63-yil – milodiy 23-yil) ning fikricha, makedoniyalik Aleksandr 8 ta, Kurtiy Ruf esa 6 ta shahar qurdirgan. O'rta Osiyoda Oks Aleksandriysi deb ataladigan joyga asos solinganligi haqida mil. avv. II asning qadimgi geografi Klavdiy Ptolemey o'z asarida keltirgan: "Yaksartda Sug'dlarning tog' shahri Kiresxata, Oksda esa – Maruka, Xolbisina; daryolar orasida va ulardan uzoqda – Tribaktra, Oks Aleksandriysi, Indikomordana, poytaxt – Drepsa, Uzoqdagi Aleksandriya joylashgan" [1, C. 295-297]. Aleksandrga tegishli shahar va qal'alar soni Plutarx (46-119) ning 70 tadan ortiq ekanligi haqidagi fikri eng ko'pi hisoblanib, keyinchalik ular soni keskin kamayib, taxminan 12 ekanligi qayd etilgan. Plutarx nazarda tutgan shahar va qal'alar haqiqiy yunon shaharlari – πόλεις polislар, doimiy harbiy garnizonlar – katoiklar va vaqtinchalik harbiy aholi punktlari – φρούριον fruriyalar bo'lgan bo'lishi kerak. Rim tarixchisi Yustinning fikricha, makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoda 7 ta [2, XII, 5, 13], Plutarx keltirgan 70 tadan ortiq shaharlardan 60 taga yaqini oldindan mavjud bo'lgan manzilgohlar bo'lib, Aleksandr qo'shini

## TARIX

askarları tomonidan qayta tiklangan yoki qal'a devorlar bilan atrofi o'rabi olingan. Vizantiyalik Stefan (VI asr) 20 ta shahar va qal'ani Makedoniyalik Aleksandr qurdiganligini ta'kidlaydi, biroq 13 tasining nomini sanab o'tadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Misrlik xristian tabib Evtixios (877-940) esa Aleksandr "Sharq va G'arbda 13 ta shahar qurgan va u Misrda Aleksandriyani qurdi" – deb yozadi. Ammo u shaharlarning nomlarini keltirmagan.

Makedoniyalik Aleksandrga qurdigan shaharlar ro'yxati Abu Ja'far Tabariy (839-923), Abu Hanifa Dinovariy (815-895), Hamza Isfahoniy (893-961) va Qudama ibn Ja'far (873-948) kabi tarixchilarining arab-fors manbalarida ham uchraydi.

X asr arab tarixchisi Abu Ja'far Tabariy fikricha, Termiz makedoniyalik Aleksandr qurdigan 12 shahar jumlasiga kiradi. Abu Hanifa Dinovariyning Aleksandr 12 ta shahar qurbanligi qayd etgan, faqat ularning 7 tasining nomi keltirilgan. Hamza Isfahoniy esa Aleksandr 12 shaharga asos solinganligi haqidagi an'anani qayd etadi va Erondagi Aleksandriya deb nomlangan 11 ta shaharlarning nomlari eslatib o'tadi. Qudama ibn Ja'far 9 shahar Makedoniyalik Aleksandrga tegishli bo'lganligini qayd qiladi.

Bu an'ana XVI asr muarixi Hofizi Abru (1361-1430) da ham mavjud. Bu guruh olimlar makedoniyalik Aleksandr mil. avv. 329-327-yillarda Oks (Amudaryo) dan kechib o'tayotgan chog'ida Tarmita (Termiz) ning aholi yashagan qismini mustahkam qal'a-shaharga aylantiradi. Shundan so'ng bu shahar Oks bo'yи (sohilida) gi Aleksandriya yoki Oksdagı Aleksandriya – Oks Aleksandriyasi deb nomlanadi. Ayni shu davrdan boshlab, harbiy jihatdan muhim joy, ya'ni Payg'ambar oroli (VIII asrdan bu orol Usmon oroli ya'ni Jazirati Usmon deb yuritila boshlangan. Orolning bunday nomlanishi arab lashkarboshisi Usmon nomi bilan bog'liq bo'lib, Termizni egallagan Muso ibn Abdulloh qo'shinlariga Xuroson noibi tomonidan Usmon boshchiligidida yuborilgan arab qo'shinlari bu orolga joylashtirilgan bo'lgan. Shu bois ko'p asrlar davomida orol Usmon oroli deb yuritilan) orqali kechuv, Baqtr (Balx) va Maroqand (Samarqand) savdo yo'lida joylashgan bu shahar O'rta Osiyo o'lkalari iqtisodiy va madaniy hayotida alohida ahamiyat kasb eta boshlagan.

Tarn (1869-1957) 13 aholi punktlari makedoniyalik Aleksandrga tegishli bo'lishi mumkinligini ilgari surgan [3, P. 234]. Bular quyidagilar:

1. Misr yaqinidagi Aleksandriya
2. Ariyadagi Aleksandriya
3. Araxosiyadagi Aleksandriya
4. Marg'yonadagi Aleksandriya
5. Oksdagı Aleksandriya
6. Aleksandriya Esxata
7. Suzadagi Aleksandriya
8. Proftaziya Aleksandriyasi
9. Baqtriyadagi Aleksandriya
10. Kavkaz Aleksandriyasi
11. Aleksandriya Bukefala
12. Hind daryosidagi Aleksandriya
13. Dengizdagı Aleksandriya (Makrena)

Piter Marshall Freyzer (1918-2007) 8 ta aholi manzilini albatta Aleksandr bilan bog'lash mumkinligiga ishonch bildirgan [4, P. 201, 140, 172, 176, 199].

1. Misr yaqinidagi Aleksandriya
2. Ariyadagi Aleksandriya
3. Aleksandriya Esxata
4. Suzadagi Aleksandriya
5. Aleksandriya Bukefala
6. Oritlar Aleksandriyasi (Rambakiya)
7. Araxosiyadagi Aleksandriya
8. Parapamisdagi Aleksandriya

G.L.Hammond (1907-2001) Plutarxning Aleksandr shaharlari 70 tadan ortiq degan fikrini bekor qilmaslik kerakligini taklif qildi. Eng muhim manba Arrianning “Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari” asaridir. Ushbu muallifning ma'lumotlari boshqalar bilan birgalikda Makedoniyalik Aleksandr davridagi Misr Aleksandriysi, Kavkazdagı Aleksandriya, Parapamisdagi Nikeya, Aleksandriya Esxata, Bukefaliya kabi ellistik aholi punktlarini lokalizatsiyalashga imkon beradi. Ularning ba'zilari vayron qilingani, ba'zilariga imtiyozlar berilgani, shahar-davlatlarga garnizonlarning joylashtirilishi, aholi punktlari va umuman imperiya boshqaruvi haqida ma'lumot beradi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Tarixiy adabiyotlarda mavjud Termizga makedoniyalik Aleksandr asos solganligi haqidagi an'ana ellinizm davri tarixchisi sitsiliyalik Diodor (mil. avv. I asr) ma'lumotlariga asoslanadi. Diodorning “Tarixiy kutubxona” asarida tilga olingan Oks bo'yidagi Aleksandriya yoki Oksdag'i Aleksandriya shahrini ilk bor ingliz olimi V.V.Tarn Eski Termiz o'rnidida joylashtirgan edi [5, LX].

Ko'p yillar davomida Eski Termiz yodgorligida qazuv ishlari olib borayotgan arxeolog olim Sh.Pidayev ayni V.V.Tarn fikrini qo'llab-quvvatlaydi va bu muammoni o'zining bir qancha maqolalarida yoritgan[6, C. 46-59]. 2001–2005-yillarda Ko'lob shahri hududida arxeologik qazishmalar tadqiqotlar natijasida Charmgaroni Poyon va Kupchinor qal'asining quyi qatlamlarida, shuningdek, Tebalay qirg'og'i hududida Yunon-Baqtriya davriga oid moddiy manbalar qoldiqlari topilgan. Arxeologik qazishma mualliflari Oks Aleksandriysi mazkur yodgorliklardan biri bo'lishi mumkinligi haqidagi taxminlarini ilgari surishgan [7, C. 109]. E.V.Rtveladze tomonidan Kampirtepada amalga oshirilgan stratigrafik tadqiqotlari katta ahamiyatga ega edi, chunki ilk davr qatlamlari ko'pincha kushon davriga oid qatlamlari va binolari bilan qoplangan. Olim mil. avv. 329–327-yillardagi yurishlari chog'ida Oks (Amudaryo) o'ng qirg'og'ida makedoniyalik Aleksandr davrida barpo etilgan eng qadimgi yunon-makedon (φρούριον) – frurioni (qo'riqlash posti, qal'a) bo'lganlini ta'kidlaydi va Oks Aleksandriyasiga lokalizatsiya qiladi [8, C. 60]. Ammo bizning fikrimizcha, Kampirtepa Oks bo'yidagi Aleksandriya emasligining sabablari quydagilardan iborat:

Birinchidan, Kampirtepa yunonlarga xos shaharozlik uslubida barpo etilmagan;

Ikkinchidan, makedoniyalik Aleksandr davri qurilish inshootlari asosan keyinchalik Kampirtepa “arki”ga aylangan qismda bunyod etilgan;

Uchinchidan, Kampirtepada yunon shaharozlik an'analariga xos tosh bezaklar amalda qo'llanilmagan;

To'rtinchidan, Kampirtepada bunyod etilgan ishlab chiqarish majmualari, jumladan, sopol idishlarni pishirishga mo'ljallangan xumdonlar Yunon-Baqtriya podshohligi davriga oid bo'lgan.

Shu jihatlarni hisobga olganda makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyo ikki daryo oralig'iga harbiy yurishi davomida Oks-Amudaryo bo'yida asos solingen Oks Aleksandriysi Kampirtepa bo'lmasdan, balki Eski Termiz o'rnidida mavjud bo'lgan.

Eski Termizni makedoniyalik Aleksandr asos solgan shahar ekanligiga quydagi asoslarni keltirish mumkin:

Birinchidan, Eski Termiz hududidan mil.avv. IV asrning oxirlariga oid arxeologik materiallar topilgan;

Ikkinchidan, bizning fikrimizcha, Amudaryoning o'ng sohilida Eski Termiz qal'asidan katta shahar qal'asi bo'lмаган. Xususan, Eski Termiz qal'asi devorining balandligi 18-20 metrni, qalinligi 7-8 metrni tashkil etib, har 20-25 metr oralig'ida burjlar bo'lgan. Eski Termiz qal'asining devori janubi-g'arbiy tomon 470 metrga va shimoli-g'arbiy tomon 230 metrga cho'zilgan va qal'aning umumiyy maydoni 10 hektar ortiqni tashkil etgan;

Uchinchidan, Eski Termiz qal'asi deyarli to'liq arxeologik tadqiqotlarni talab qiladi. Chunki qal'ada ikkita 4 x 4 metr hajmdagi 11 metr chuqurlikka tushilgan shurf qazilgan. Qal'a arxeologik jihatdan to'liq o'rganilsa makedoniyalik Aleksandr davriga oid inshootlar va boy arxeologik materiallar topilishi ehtimoli katta hisoblanadi;

To'rtinchidan, Sh.Pidayev V.V.Tarn, M.E.Masson kabi tadqiqotchilarning Darmamitra Yunon-Baqtriya davlati podshosi Demetriy nominining sanskritcha talaffuzi ekanligi, o'z navbatida bu nomdan zamonaviy Termiz atamasi yuzaga kelganligi haqidagi fikrlarini inkor qiladi.


Milodiy VII asrda Ravennada tuzilgan “Pevtinger xaritasi” da Antioxiya Tarmita shahri ham tilga olingan. V.V.Tarn ta'kidlashicha, Oks Aleksandriysi ko'chmanchi qabilalar (yunon

## TARIX

an'analarida varvarlar) tomonidan vayron etilgan va qayta tiklangan bu shahar hukmdor sharafiga Oksdagi Antioxiya deb nomlangan. V.V.Tarn fikricha, bu hodisa mil. avv. 293-290-yillarda sodir bo'lgan [5, LX; 4, P. 13].

## XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, makedoniyalik Aleksandr qurdirgan shaharlar haqida yunon-rim, arab-fors, vizantiya mualliflari asarlarida ma'lumotlar keltirilgan va ular bir-biridan farq qiladi. Internet ma'lumotlariga ko'ra makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shahar va aholi manzillari soni 20 ta (**Xarita va jadvalga qarang**). Bizning fikrimizcha, deyarli 16 gektarni tashkil etuvchi Eski Termizning ark qismi to'liq o'rganilsa miloddan avvalgi IV asrga oid madaniy qatlam izlari topilishi mumkin. Shu holatda biz ishonch bilan Eski Termiz shahri Oks bo'yidagi Aleksandriya ekanligini asoslashimiz mumkin.



**Xarita. Makedoniyalik Aleksandr shahrlari** (Manba:  
[https://en.wikipedia.org/wiki/File:Cities\\_of\\_Alexander\\_the\\_Great.png](https://en.wikipedia.org/wiki/File:Cities_of_Alexander_the_Great.png))

	O'zbekcha nomi	Yunoncha nomi	Asos solingan yili	Hozirgi ahvoli	Joy-lashgan o'rni	Izoh
1.	Aleksandro-pol	Ἀλεξανδρόπολις Θράικης yoki Ἀλεξάνδρεια τῶν Μαίδων	340	Sandanski hududidagi xarobalar	Bolgariya	Makedonyaning shimoli-sharqi chegarasida Frakiya qabilasi bo'lgan medlar qo'zg'ononini bostirgan joyda

2.	Troasdagi Aleksandriya	Ερεεα Τρωάς	334	 Dalyan	 Turkiya	U makedoniyalik Aleksandrning vorislaridan biri tomonidan asos solingan bo'lishi mumkin.
3.	Latm (Latmos) dagi Aleksandriya	Άλεξάνδρεια πρὸς Λάτμον γοκι Καρική	334 – 333	Karpuzlu hududidagi xarobalar	 Turkiya	Kariyadagi Alinda qadimiy shahri o'rnida. Ehtimol, diadoxlar davrida elliňlashgan yoki o'zgartirilgan
4.	Iss yonidagi Aleksandriya	Άλεξάνδρεια κατ' "Ισσον	333	Iskenderun	 Turkiya	Sanasi bahsli
5.	Misr Alek-sandriyasi (Iskandariya)	Άλεξάνδρεια ἡ ἐν Αἰγύπτῳ 	331	 Aleksandriya	 Misr	Misrdagi ikkinchi yirik shahar. Aholisi 5 381 000 kishi (2021)
6.	Arianadagi Aleksandriya	Άλεξάνδρεια ἐν Ἀρίοις	330	 Hirot	 Afg'o-niston	Aria satrapligi markazi Artokoana hududida. Lokalizatsiyasi bahsli
7.	Proftaziya Alek-sandriyasi yoki Dranganadagi Aleksandriya	Άλεξάνδρεια ἡ Προφθασία γοκι Άλεξάνδρεια ἐν Δραγγιανῇ	330	Farax	 Afg'o-niston	Filotlar fitnasini fosh qilish sharafiga nomlangan (yunoncha προφθασία - kutish)
8.	Araxosiya-dagi Aleksandriya	Άλεξάνδρεια Άραχωσίας γοκι Άλεξανδρόπολις	330-329	 Qandahor	 Afg'o-niston	Araxosiya satrapligi markazi Kapis o'rnida
9.	Kavkaz Aleksan-driyasi	Άλεξάνδρεια πρὸς Καύκασον γοκι Άλεξάνδρεια ἡ τοῦ Καυκάσου γοκι Άλεξάνδρεια ἡ ἐν Παροπαμισάδαις	329	Charikor yoki Bagrom	 Afg'o-niston	Ganxara satrapligi markazi Kapishakanish o'rnida
10.	Opianadagi Aleksandriya		329	G'azna	 Afg'o-niston	
11.	Aleksandriya Esxata (Chekka)	Άλεξάνδρεια Ἐσχάτη	329	Xo'jand	 Toji-kiston	
12.	Oks Aleksandriyasi	Άλεξάνδρεια ἡ ἐπὶ τοῦ Ὦξου	328	 Oxonum	 Afg'o-niston  O'zbekiston	Lokalizatsiyasi bahsli P.Bernar fikricha Oxonum, E.V.Rveladze fikricha, Kampirtera; V.V.Tarn, Sh.R.Pidayevlar fikricha Termiz

## TARIX

					Kampirtepa Termiz	
12.	Marg'iyona-dagi Aleksandriya	Άλεξάνδρεια τῆς Μαργιανῆς	328	Marv xarobalari	 Turkmaniston	
13.	Bukefaliya yoki Bukefala yoki Aleksandriya Bukefala yoki Bukefalus Alek-sandriysi	Βουκεφαλία yoki Βουκεφάλα yoki Άλεξάνδρεια Βουκεφάλα yoki Άλεξάνδρεια Βουκέφαλος	326		 Pokiston	Makedoniyalik Aleksandr oti Bukefal o'lgan joyda
14.	Nikeya	Νίκαια Ἰνδίας yoki Άλεξάνδρεια Νίκαια	326	Jelam	 Pokiston	Gidaspesdag'i g'alaba sharafiga nomlangan (yunoncha Νίκη – g'alaba)
15.	Gifasisadagi Aleksandriya		326	Amritsar hududidagi xarobalar	 Hindiston	
16.	Hinddagi Aleksandriya yoki Sug'd Aleksan-driysi		325	Panjob viloyatining janubidagi Uch shahrida	 Pokiston	
17.	Orit Aleksandriysi		325	Belujiston viloyatidagi Bela shahrida	 Pokiston	Oritlarning Rambakiyadagi manzili (yunoncha 'Ραμβακία)
18.	Patala yoki Ksilinepol		325	Tatta tarixiy shahri	 Pokiston	Ksilinepol (yunoncha "daraxtli shahar")
19.	Kermondag'i Aleksandriya		325	Lokalizatsiyasi aniq emas	 Eron	
20.	Suzadagi Aleksandriya		324	Al-Qurnadagi xarobalar	 Iraq	

**Jadval. Makedoniyalik Aleksandr asos solgan shaharlari****ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- Ртвеладзе Э.В. К вопросу о локализации городов на Оксе в "Географии" Птолемея // Археологические вести. Вып. 32. 2021. – С. 295-297.
- Марк Юниан Юстин. Эпитома сочинения Помпея Трого "История Филиппа". XII, 5, 13.
- Alexander the Great: Volume 2, Sources and Studies, by W.W.Tarn. Cambridge university press, London-New York-Melbourne, 2002. – Р. 235.
- Fraser P.M. Cities of Alexander the Great, Clarendon Press, Oxford, 1996. – Р. 259.
- Tarn W.W. Two selevkid studies. Tarmita. JHS. 1940. LX.
- Пидаев Ш. К вопросу о локализации Александрии на Оксе // ИМКУ, Т., Фан, 1992, Выпуск 26, С. 46-59.
- Якубов Ю., Довуди Д., Филимонова Т. История Кульяба с древнейших времён до наших дней. Душанбе: Дониш, 2006. – С. 166. // Тихонов Р.В. Александрия Оксянская: историографический аспект // Гуманитарные и юридические исследования. 2020. №2. – С. 109.
- Ртвеладзе Э.В. Александрия Оксянская Кампиртепа: город-крепость на берегу Окса. – Ташкент: Историческая библиотека, 2019. – 60 с.
- Tulkinjon, K., 2020. About historiography of historical geography of northern Bactria. *Journal of Critical Reviews*, 7(18), pp.748-758.
- Kholiyarov, T. C. "About new studies of historical geography on historical studies of northern bactria" Үтмишига назар журнали 20.2 (2019).
- Chorshanbievich, K. T. "Some Reviews about the Northern Border of Bactria." *International Engineering Journal for Research & Development* 5.5 (2020).

10. Kholiyorov Tulkjinjon, Makhmatkulova Saida THE MAIN STAGES OF THE DEVELOPMENT PROCESS OF ANCIENT SURKHAN // Бюллетень науки и практики. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-main-stages-of-the-development-process-of-ancient-surkhan> (дата обращения: 10.06.2024).

11. Tulkjinjon Ch. Xoliyarov, (2022). SIGNIFICANCE OF EPIGRAPHIC SOURCES “NAQSH-E ROSTAM” AND “CUBE OF ZOROASTER” IN THE HISTORICAL GEOGRAPHY OF BACTRIA. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 3(11), 7–12. <https://doi.org/10.37547/history-crih-03-11-02>

12. To'lqin, Chorshanbiyevich Xoliyarov QADIM SURXON VOHASINING INSONLAR TOMONIDAN O'ZLASHTIRILISH JARAYONI BOSQICHLARI // ORIENSS. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qadim-surxon-vohasining-insonlar-tomonidan-o-zlashtirilish-jarayoni-bosqichlari-1> (дата обращения: 10.06.2024).